

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

AKADEMIK KENGASHNING 3-MAJLISI BAYONNOMASI

2024-yil 14-noyabr

Toshkent - 2024

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
AKADEMIK KENGASHI MAJLISINING
3-BAYONNOMASI

Toshkent shahri

2024- yil 10-noyabr

Qatnashdilar:

A'zolar: S.Safoyev (rais), A.Umarov (rais o'rinbosari), M.Abduraxmanova (Akademik kengash kotibi), O.Yusupdjanov, G.Ismailova, Sh.Abdullayev, A.Xaydarov, A.Turdimatov, I.Xamedov, U.Yakubxodjayev, M.Xamdamov, Sh.Arapov, L.Xodjayev, B.Salaxitdinov, O.Mannopova, U.Xasanov, E.Sultanova, G.Raimova, U.Sharipova, L.Tashpulatova, I.Yakubov, Sh.Masadikov, R.Yusufaliyeva, Y.Borisova, V.Mamatkasimova, X.Gafurova, N.Raimova, A.Rasulov, M.Baqoyev, N.Muminova, M.Abdullayeva, A.Abdullayev.

Doimiy taklif qilinganlar: U.Dustov, A.Nasirov, M.Siddikova, I.Mo'minov, Sh.Shakirova, Sh.Urinov, D.Normetova, F.Tashev.

Qatnashmadilar: A'zolar: I.Mavlanov(sababli), N.Sirajiddinov (sababli).

Doimiy taklif qilinganlar: M.Sheraliyev, B.Xasanov, A.Xakimov.

KUN TARTIBI:

Masala T/r	Mazmuni	Taqdimotchi va mas'ullar	Hujjat kodi
3-1	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining yangi tarkibining 1-majlisi xulosalari haqida axborot	Birinchi prorektor A.Umarov	A
3-2	Parlament saylovlari jarayonlari doirasida ishlab chiqilgan targ'ibot tadbirlarida JIDU ishtiroki bo'yicha hisobot	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova	B
3-3	2024/2025-o'quv yili Qabul komissiyasi faoliyati (bakalavriatura va magistratura qabuli) yakunlari to'g'risida hisobot	2024/2025-o'quv yili JIDU universiteti qabul jarayoni bo'yicha mas'ul kotib	C

		U. Yakubxodjayev	
3-4	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida akademik jarayonni raqamlashtirish (avtomatlashtirish) masalasi to'g'risida	Registrlar ofis boshlig'i I.Mo'minov	D
3-5	<p style="text-align: center;">Turli masalalar</p> <p>1. "Eng faol yil talabasi" tanlovi universitet bosqichining g'olib nomzodlarini Respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etish.</p> <p>2. Universitet stipendiyasiga tavsiya etilgan nomzodlarni tasdiqlash.</p> <p>3. Ilmiy kengashlar va ular qoshidagi seminarlarning samaradorlik ko'rsatkichlari va tarkibini yangilash to'g'risida</p> <p>4. "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari" fanidan maxsus imtihon komissiyasi faoliyati reglamentini tasdiqlash.</p> <p>5. Oliy ta'lim muassasasalari xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raislari faoliyati, ularga yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish to'g'risida"gi vazirlikning 2024-yil 20-avgustdagidagi 316-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida JIDU "Lider qizlar" klubi nizomini tasdiqlash.</p>	<p>Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Yusupdjanov</p> <p>Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova</p> <p>XQMK raisi E.Sultanova</p>	E

Akademik kengash kotibi M.Abduraxmanova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining “Oliy o‘quv yurtining Ilmiy kengashi to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq Ilmiy kengash majlisini boshlashga yetarli kvorum bor ekanligini ma‘lum qildi.

Bildirilgan mulohazalar:

Akademik kengash a‘zolari majlisni boshlashni bir ovozdan ma‘qulladilar.

1-MASALA. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining yangi tarkibining 1-majlisi xulosalari to‘g‘risida.

ESHITILDI: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kuzatuv kengashining yangi tarkibining 1-majlisi xulosalari haqida Birinchi prorektor **A.Umarovning** axboroti tinglandi. 2024-yil 2-noyabr kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining yangi tarkibida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Birinchi prorektor A.Umarov Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining (JIDU) Kuzatuv kengashi O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son hamda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgani hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda uning tarkibidagi tashkilotlarining boshqaruv organi hisoblanishini qayd etgan holda, Kengashda ko‘rilgan masalalar to‘g‘risida ma‘lumot berdi. Jumladan, Kuzatuv kengashi Nizomi va tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2024-yil 22-oktabrdagi BR-46-son buyrug‘i bilan tasdiqlanganini aytib o‘tdi. Shuningdek, JIDUning yangi tashkiliy tuzilmasi va oylik maosh miqdori tasdiqlangani, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti amaldagi tuzilmasi va shtat birliklari soni 2024-yil 30-noyabrdan tugatilishi va JIDU yangi tuzilmasi tasdiqlanishi va shtat birliklari soni belgilanishi haqida qaror qabul qilingani, JIDU shtat birliklarining lavozim bo‘yicha oylik maoshlari miqdorlari ham qaror bilan tasdiqlani, JIDU huzuridagi Diplomatik

akademiya magistraturasining faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi masalasi ko'rib chiqilgani to'g'risida axborot berildi.

JIDU Birinchi prorektori A.Umarov tomonidan berilgan axborot tinglandi va ma'lumot sifatida qabul qilindi. **(Hujjat A)**

2-MASALA. Parlament saylovlari jarayonlari doirasida ishlab chiqilgan targ'ibot tadbirlarida JIDU ishtiroki to'g'risida.

ESHITILDI:

Parlament saylovlari jarayonlari doirasida ishlab chiqilgan targ'ibot tadbirlarida JIDU ishtiroki bo'yicha Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **G.Ismailova** hisobot berdi. Mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalarida saylov jarayoni va uning demokratik tamoyillarga asoslanganligi haqida maqola va intervyular tayyorlangani, talabalar o'rtasida "Saylov-2024" mavzusida esselar tanlovi, kvizlar o'tkazilgan hamda talabalarning demokratik saylov jarayonlari haqida fikr almashish imkoniyati berilgan davra suhbatlari tashkil etilgani, turli mamlakatlardan kelgan xalqaro kuzatuvchilar universitetdagi seminar va master-klass darslarda ishtirok etgani, Ispaniya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlardan kelgan ekspertlar maqolalarida saylov haqida o'z fikrlarini bildirganlari to'g'risida batafsil ma'lumot berildi. **(Hujjat B)**

QAROR QILINDI:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3-MASALA. 2024/2025-o'quv yili Qabul komissiyasi faoliyati (bakalavriatura va magistratura qabuli) yakunlari to'g'risida.

ESHITILDI: 2024/2025-o'quv yili Qabul komissiyasi faoliyati (bakalavriatura va magistratura qabuli) yakunlari to'g'risida 2024/2025-o'quv yili JIDU universiteti qabul jarayoni bo'yicha mas'ul kotib U. Yakubxodjayevning hisoboti tinglandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoniga muvofiq 2024/2025-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha imtihonlar "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq yangi tartibda o'tkazilgani to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, 2024/2025-o'quv yili Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul natijalari taqdim etildi:

№	SHIFR	TA'LIM YO'NALISHLARI	Qabul natijalari		
			Jami	shu jumladan:	
				o'zbek	rus
		Oliy ta'lim muassasi bo'yicha jami:	1463	899	564
<i>Shu jumladan,</i>					
1	60310200	Xalqaro munosabatlar	340	217	123
2	60310100	Siyosatshunoslik	106	56	50
3	60420100	Yurisprudensiya	368	222	146
4	60411100	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	649	404	245

Shu jumladan:

- Davlat granti: **717** nafar
- To'lov kontrakt: **542** nafar
- Oshirilgan to'lov-kontrakt asosida: **204** nafar

№	SHIFR	MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI	Qabul natijalari		
			Jami	shu jumladan:	
				o'zbek	rus
		Oliy ta'lim muassasi bo'yicha jami:	317	178	139
<i>Shu jumladan,</i>					
1	70310101	Amaliy siyosatshunoslik	33	18	15
2	70310201	Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar	41	20	21
3	70411102	Tashqi iqtisodiy faoliyat	72	37	35
4	70411101	Jahon iqtisodiyoti	94	58	36
5	70420103	Xalqaro huquq	44	24	20

6	70420109	Xalqaro biznes huquqi	33	21	12
---	----------	-----------------------	----	----	----

Keyingi o'quv yilidagi qabul jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha qator takliflar berildi. Jumladan, imtiyozli toifadagi qabul bo'yicha har bir OTM kvotasi doirasida proporsional taqsimotga asoslanishi maqsadga muvofiqligi, magistratura bosqichida o'qishga kirish uchun imtihonlarning joriy etilishi lozimligi, qabul jarayoni bo'yicha barcha asosiy tartib-qoidalar, qabul parametrlari may oyi oxirigacha shakllantirilib bo'lgan bo'lishi lozimligi shular jumlasidandir. **(Hujjat C)**

Bildirilgan mulohazalar:

Hisobot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. 2024/2025-o'quv yili Qabul komissiyasi faoliyati (bakalavriatura va magistratura qabuli) yakunlari to'g'risida mas'ul kotib U.Yakubxodjayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024/2025-o'quv yili qabuli bo'yicha infografik shakldagi hisobot universitet rasmiy-veb sahifasiga joylashtirilsin (Mas'ul: U.Yakubxodjayev va T.Azimov. Nazorat: A.Umarov).

3. Keyingi o'quv yilidagi qabul jarayonini tashkil etish bo'yicha takliflar 2024-yilning 22-noyabrga qadar JIDU Akademik kengashi a'zolari bergan fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuborilishi ta'minlansin (Mas'ul: U.Yakubxodjayev. Nazorat: A.Umarov).

4. Universitetning Qabul masalalari bilan doimiy shug'ullanuvchi tuzilmasi ishni tashkil qilish (vazifalarni yuklatilish) bo'yicha takliflar (shu jumladan, ichki normativ hujjatlar loyihasi)ni ishlab chiqib, Akademik kengashning keyingi yig'ilishida muhokama va tasdiq uchun kiritilsin (Mas'ul: U.Yakubxodjayev va F.Tashev. Nazorat: A.Umarov).

5. Qabul komissiyasining faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilsin va Akademik kengashning keyingi majlisi kun tartibiga kiritilsin.

6. Magistraturaga qabul bo'yicha takliflar ishlab chiqilsin va Akademik kengash majlisi kun tartibiga kiritilsin.

7. 2025/2026- o'quv yili qabul komissiyasining tarkibi shakllantirilsin. Mazkur masala ijrosi birinchi prorektor A.Umarovga yuklatilsin.

4-MASALA. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida akademik jarayonni raqamlashtirish (avtomatlashtirish) masalasi to'g'risida.

ESHITILDI: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida akademik jarayonni raqamlashtirish (avtomatlashtirish) masalasi to'g'risida Registrar ofis boshlig'i I.Mo'minovning axboroti tinglandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 330-sonli qaroriga binoan "Smart Universitet" konsepsiyasi asosida o'quv jarayonlarini raqamlashtirish jarayoni reja asosida amalga oshirilayotgani, 2024/2025-o'quv yilida 1-semestrndan boshlab yangilangan "Moodle2024" tizimida tashkillashtirilgan o'quv jarayoni to'g'risida ma'lumot berildi. Shuningdek, tizimni yanada takomillashtirish takliflari taqdim etildi. "Moodle2024" va "HEMIS" tizimlari faoliyati uzluksizligini ta'minlash maqsadida texnik xodimlar, xususan, moodle tizimi arxitekturasini doimiy asosda rivojlantirib boradigan dasturchi, texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish zaruriyati mavjudligini hisobga olgan holda AKT bo'limi va Registrar ofisi xodimlari shtat birliklari, tizim barqaror ishlashi imkoniyatlari zarurligi qayd etildi. **(Hujjat D)**

Bildirilgan mulohazalar:

Axborot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida akademik jarayonni raqamlashtirish (avtomatlashtirish) masalasi to'g'risida Registrar ofis boshlig'i I.Mo'minovning axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida akademik jarayonni raqamlashtirish strategiyasi, xususan, "Moodle2024" platformasining foydalanuvchilarga qulay interfeysini takomillashtirish, navigatsiya tizimini soddalashtirish va kontentni moslashtirish uchun talab qilinadigan o'zgarishlar ishlab chiqilsin. Mazkur qaror ijrosi O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i U.Dustov hamda Registrar ofisi boshlig'i I.Muminovga yuklatilsin. **Muddat:** 2025-yilning 1-choragiga qadar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qaroridagi vazifalar ijrosini ta'minlash

maqsadida “UWED” mobil ilovasini ishlab chiqib, mavjud platformalar bilan integratsiya qilish ishlari uchun texnik topshiriq ishlab chiqilsin, “Safe Exam Browser” tizimini kengaytirish va “Turnitin” dasturini to‘liq integratsiya qilish jarayoni amalga oshirilsin, “Blind assessment” vositasidan foydalanishni yanada kengaytirish uchun professor-o‘qituvchilarni texnik qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilsin. . Mazkur vazifa ijrosini ta‘minlash I.Muminovga yuklatilsin.

Muddat: 2025-yil dekabr oyiga qadar

5. Professor-o‘qituvchilar va texnik xodimlar salohiyatini oshirish Moodle platformasidan samarali foydalanish uchun 2025-yil qishki ta‘til hamda 2025-yil 2-choragida professor-o‘qituvchilar va xodimlar uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etilsin. Mazkur vazifa ijrosini ta‘minlash I.Muminovga yuklatilsin.

6. Moodle va HEMIS tizimlarining barqaror ishlashini ta‘minlash maqsadida AKT bo‘limi va Registrar ofisi xodimlari shtatini kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilsin. . Mazkur vazifa ijrosini ta‘minlash I.Muminovga yuklatilsin.

Muddat: 2025-yil dekabr oyiga qadar

TURLI MASALALAR

5.1. ESHITILDI: “Eng faol yil talabasi” tanlovining universitet bosqichi g‘olib nomzodlarini Respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etish hamda Universitet stipendiyasiga tavsiya etilgan nomzodlarni tasdiqlash to‘g‘risida. Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor O.Yusupdjanov nomzodlar to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot berdi. **(Hujjat E).**

QAROR QILINDI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovasiyalar vazirligi (27-q/q), Madaniyat vazirligi (01-17-15), Yoshlar ishlari agentligi (01-07/21), O‘zbekiston Badiiy akademiyasi (q-q-03-03) hamda Fanlar akademiyasining (2/5)-sonli 2024-yil 25-iyuldagi qo‘shma qarorining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 3-oktabrdagi 143-1-UM-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida, “**Eng faol yil talabasi**” tanlovining har bir fakultet kesimida o‘tkazilgan 1-turi va 2- fakultetlararo bosqichida g‘olib bo‘lgan quyidagi talabalar nomzodi Respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etilsin:

“Yilning eng faol bilimdon talabasi” (mutaxassisligi bo'yicha) – **Xolmurodov Otabek Alimardonovich**, Xalqaro munosabatlar fakulteti 3-kurs talabasi

“Yilning eng faol targ'ibotchi talabasi” – **Raximov Akmalsher Rasulovich**, Xalqaro huquq fakulteti 4-kurs talabasi

“Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi” – **Imamov Javoxir Fayozovich**, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 4-kurs talabasi

“Yilning eng faol sportchi talabasi” – **Mamadaminova Sofiya Mansur qizi**, Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-kurs talabasi

“Yilning eng faol iqtidorli talabasi” – **Rahmatillaeva Ruxshona Zafar qizi**, Xalqaro huquq fakul'teti 3-kurs talabasi

“Yilning eng faol ijodkor talabasi” – **Turg'unboev Otabek Odiljon o'g'li**, Xalqaro huquq fakulteti 3-kurs talabasi

“Yilning eng faol tadbirkor talabasi” – **Ubaydullaeva Ismigul Shavkatillaevna**, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 4-kurs talabasi.

5.2. Universitet stipendiyasiga tavsiya etilgan nomzodlarni tasdiqlash to'g'risida. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Yusupdjanov nomzodlar to'g'risida to'liq ma'lumot berdi. **(Hujjat E).**

QAROR QILINDI:

JIDU rektorining 2021-yil 18-martdagi **“Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti stipendiyasini ta'sis etish to'g'risida”**gi 64-UM-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida fakultetlar tomonidan o'tkazilgan tanlov natijasiga ko'ra, ishtirokchilarning ijtimoiy faolligi, ilmiy salohiyati va ta'limdagi reyting ballarini hisobga olgan holda, quyidagi talabalarga universitet stipendiyasi tayinlanlansin:

“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti 3-bosqich talabasi – **Yaxyoev Doston Islombekovich**,

“Xalqaro iqtisodiyot va menejment” fakulteti 4-bosqich talabasi – **Sanoqulov Asilbek Elbek o'g'li**,

“Xalqaro munosabatlar” fakulteti 3-bosqich talabasi – **Mustaqimov Firdavs Furqat o'g'li**.

5.3. Ilmiy kengashlar va ular qoshidagi seminarlarning samaradorlik ko'rsatkichlari va tarkibini yangilash to'g'risida. Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi 12.00.10 –

“Xalqaro huquq” ixtisosligi bo‘yicha DSc.11/25.08.2022.Yu.24.01, 23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari” (siyosiy fanlar) ixtisosligi bo‘yicha DSc.11/25.08.2022.S.24.02, 08.00.09 - “Jahon iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha DSc.11/25.08.2022.I.24.03 raqamli Ilmiy kengash faoliyati yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor **G.Ismailova** hisoboti tinglandi va kengashlarning yangilangan tarkibi taklif qilindi.

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori G.Ismailova axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.11/25.08.2022.Yu.24.01, DSc.11/25.08.2022.S.24.02, DSc.11/25.08.2022.I.24.03 raqamli Ilmiy kengashlar faoliyati qoniqarli deb baholansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagi “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarorida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar samarasiga erishish yuzasidan tegishli choralar ko‘rilsin.

Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.11/25.08.2022.Yu.24.01, DSc.11/25.08.2022.S.24.02, DSc.11/25.08.2022.I.24.03 raqamli Ilmiy kengashlar va ular huzuridagi Ilmiy seminarlarning yangi tarkibi 3A-5-E ilova, 3B-5-E ilova, 3C-5-E ilova, 3D-5-E ilova va 3E-5-E ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori G.Ismailova zimmasiga yuklatilsin.

5.4. “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari” fanidan maxsus imtixon komissiyasi faoliyati reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida.

JIDU Akademik Kengashining 2024-yil 10-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan majlisida tasdiqlangan “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari” fanidan maxsus imtixon o‘tkazish yuzasidan komissiya faoliyati reglamenti ishlab chiqilgani haqida ma‘lumot berildi.

Mazkur Reglament O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 3-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan 2793-sonli "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, maxsus imtihon komissiyasi faoliyatini tashkil etish va maxsus imtihonni qabul qilish tartibini belgilaydi.

QAROR QILINDI:

5. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari" fanidan maxsus imtihon komissiya faoliyati reglamenti 4-5-E ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Maxsus imtihon komissiyasi faoliyatini tashkil etish komissiya kotibi N.Raimova zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova zimmasiga yuklatilsin.

5.5. "Oliy ta'lim muassasasalari xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raislari faoliyati, ularga yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish to'g'risida"gi vazirlikning 2024-yil 20-avgustdagidagi 316-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida jidu "lider qizlar" klubi nizomini tasdiqlash to'g'risida XQMK raisi E.Sultanova ma'lumoti tinglandi.

Bildirilgan mulohazalar:

Ma'lumot Akademik kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.


QAROR QILINDI:

1. JIDU "Lider qizlar" klubi to'g'risida XQMK raisi **E.Sultanovning** axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta'lim muassasasalari xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raislari faoliyati, ularga yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish to'g'risida"gi vazirlikning 2024-yil 20-avgustdagidagi 316-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida JIDU "**Lider qizlar**" klubi nizomi 5-5-E ilovaga muvofiq asos uchun qabul qilinsin.


3. JIDU "Lider qizlar" klubi faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan tashkiliy masalalarni amalga oshirish va nazorat qilish XQMK raisi **E.Sultanovaga** yuklatilsin.

Akademik kengash majlisiga raisi



S.S. Safoyev

Akademik kengash kotibi



M.D. Abduraxmanova